


### XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning 1- aprel holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 144,8 ming kishini tashkil qildi va yil boshiga nisbatan 13,1 ming kishiga yoki 100,4 % ga ko'paydi. Shundan, 2040,6 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 64,9 %) va 1 104,2 ming kishi – qishloq joylarida (35,1 %) istiqomat qiladi.

**Namangan viloyati hududlari bo'yicha doimiy  
aholi soni to'g'risida ma'lumot  
(2025- yilning 1- aprel holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi		
	jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq
<b>Viloyat jami</b>	<b>3 144,8</b>	<b>2 040,6</b>	<b>1104,2</b>
<i>shahar:</i>			
Namangan sh.	386,4	386,4	-
Davlatobod	163,6	163,6	-
Yangi Namangan	166,9	166,9	-
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	140,3	48,5	91,8
Kosonsoy	234,0	140,5	93,5
Namangan	198,1	60,1	138,0
Norin	179,8	82,0	97,8
Pop	240,6	135,9	104,8
To'raqo'rg'on	251,8	146,6	105,3
Uychi	238,6	115,5	123,1
Uchqo'rg'on	189,4	80,9	108,5
Chortoq	220,0	147,2	72,8
Chust	292,6	200,8	91,8
Yangiqo'rg'on	242,8	166,0	76,8

**Namangan viloyati shahar va qishloqlar  
bo'yicha aholi soni to'g'risida ma'lumot**  
(2025- yilning 1- aprel holatiga, ming kishi)



Shuningdek, viloyatdagi jami doimiy aholining 1 598,6 ming tasi erkaklar (jami aholi sonining 50,8 %) va 1 546,3 ming tasi ayollarni (49,2 %) tashkil etadi.

Viloyatning hududiy maydoni 7,444 ming kv.km.ni tashkil etib, aholi zichligi 1 kv.km.ga o'rtacha 422,7 kishi to'g'ri keladi. Aholi zichligi yuqoriligi bo'yicha shahar va tumanlar kesimida tahlil qilib ko'rilganda, Namangan shaharda 1 kv.km.ga o'rtacha 9 659,6 kishi, Davlatobod tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 3 272,2 kishi, Yangi Namangan tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 2 780,8 kishi, Namangan tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 990,3 kishi va To'raqo'rg'on tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 932,7 kishi to'g'ri kelmoqda.

Aholi zichligi past bo'lgan tumanlar kesimida tahlil qilib ko'rilganda, Pop tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 82,7 kishi, Mingbuloq tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 189,6 kishi to'g'ri kelmoqda.


**2025- yil 1- aprel holatiga hududlar kesimida aholi zichligi (1 km kv kishi)**



**Namangan viloyati hududlari bo'yicha doimiy  
aholi soni to'g'risida ma'lumot  
(2025- yilning 1- aprel holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi		
	Jami	shu jumladan:	
		erkak	ayol
<b>Viloyat jami</b>	<b>3 144,8</b>	<b>1 598,6</b>	<b>1 546,3</b>
<i>shahar:</i>			
Namangan sh.	386,4	198,7	187,7
Davlatobod	163,6	84,1	79,5
Yangi Namangan	166,9	85,8	81,1
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	140,3	71,5	68,8
Kosonsoy	234,0	119,3	114,7
Namangan	198,1	101,3	96,8
Norin	179,8	91,6	88,2
Pop	240,6	121,0	119,6
To'raqo'rg'on	251,8	127,3	124,5
Uychi	238,6	119,4	119,2
Uchqo'rg'on	189,4	95,0	94,3
Chortoq	220,0	110,6	109,4
Chust	292,6	149,7	142,9
Yangiqo'rg'on	242,8	123,3	119,4


Namangan viloyati hududlari bo'yicha aholining jinsi soni to'g'risida ma'lumot  
(2025- yilning 1-aprel holatiga, ming kishi)



Aholining tabiiy harakati  
(yanvar-mart)

	Kishi			har 1000 kishiga	
	2024- yil	2025- yil	o'sish, kamayish	2024- yil	2025- yil
Tug'ilganlar	17746	17112	-634	23,2	22,1
Vafot etganlar	3420	3514	94	4,5	4,5
Tabiiy o'sish	14326	13598	-728	18,7	17,6
Nikohlar	3199	2653	-546	4,2	3,4
Ajralishlar	1006	1048	42	1,3	1,4


Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti  
2025- yil yanvar-mart oylarida  
(1000 aholiga nisbatan, promille)



**Tug‘ilish darajasi.** 2025-yil yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 17 112 kishini tashkil qildi va 2024- yilning mos davriga (17 746 kishi) nisbatan 634 taga kamaydi. Tug‘ilish koeffitsiyenti mos ravishda 22,1 promilleni tashkil qildi va 2024- yilning mos davriga (23,2 promille) nisbatan 1,1 promillega kamayish bo‘ldi.

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning Namangan shahrida (26,9 dan, 27,5 promillega) va Namangan tumanida (22,1 promilledan, 23,6 promillega). Qolgan barcha tumanlarda kamayish kuzatildi.


**2025- yil yanvar-mart oylarida hududlarda tug‘ilish darajasi**  
(1000 aholiga nisbatan, promille)



**O‘lim darajasi.** 2025- yil yanvar-mart oylarida vafot etganlar soni 3 420 kishini tashkil qildi. 2024- yilning mos davriga (3 514 kishi) nisbatan 94 taga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil qildi (2024- yil yanvar-mart oylarida 4,5 promille).

Vafot etganlar soni ko‘payishi Namangan shahrida (5,1 dan 5,4 promillega), Namangan numanida (3,4 dan 4,5 promillega), Uchqo‘rg‘on tumanida (5,5 dan 6,0 promillega) va Chust tumanida (3,8 dan 4,5 promillega) kuzatildi.

**2025- yil yanvar-mart oylarida hududlarda o‘lim darajasi**  
(1000 aholiga nisbatan, promille)




**Nikohlar va ajralishlar.** 2025- yil yanvar-mart oylarida FHDYO organlarida 2 653 ta nikohlar va 1 048 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan promilleda 3,4 nikoh (2024- yilning tegishli davrida – 4,2) va 1,4 ajralishlar (2024- yilning mos davrida – 1,3) to‘g‘ri keladi.

**2025- yil yanvar-mart oylarida tuzilgan nikohlar  
va nikohdan ajralishlar soni**  
(birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
<b>Viloyat jami</b>	<b>3 199</b>	<b>2 653</b>	<b>1 006</b>	<b>1 048</b>
shahar:				
Namangan sh.	369	371	164	173
Davlatobod	127	114	47	54
Yangi Namangan	129	99	27	20
tumanlar:				
Mingbuloq	158	98	56	57
Kosonsoy	235	221	59	77
Namangan	140	112	64	75
Norin	207	132	67	60
Pop	301	225	77	65
To‘raqo‘rg‘on	230	186	102	98
Uychi	156	128	66	73
Uchqo‘rg‘on	216	168	70	62
Chortoq	270	231	53	76
Chust	411	340	94	89
Yangiqo‘rg‘on	250	228	60	69


### Tumanlar (shahar) kesimida nikox tuzganlar soni va koeffitsiyenti

(2025-yil yanvar-mart holatiga 1000 aholiga nisbatan, promille)




### Tumanlar (shahar) kesimida nikoxdan ajralish soni va koeffitsiyenti

(2025-yil yanvar-mart holatiga 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 708 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 1 176 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i manfiy -468 kishiga (2024- yilning mos davrida - manfiy -554 kishi) teng bo'ldi. Eng katta manfiy qoldiqlar Namangan shahri (manfiy -125), Pop tumani (manfiy -92), Uchqo'rg'on tumani (manfiy -65) hamda Shust tumanida (manfiy -59) kuzatildi.

**Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni**  
(2025- yil yanvar-mart)



**Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni**  
(2025- yil yanvar-mart)



2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
doimiy aholi sonining taqsimlanishi



2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida doimiy  
aholi sonining taqsimlanishi


ming kishida

	Doimiy aholi soni		
	2024- yil	2025- yil	O'sish +/-
<b>Viloyat jami</b>	<b>3079,9</b>	<b>3144,8</b>	<b>64,9</b>
<i>shahar:</i>			
Namangan sh.	377,2	386,3	9,1
Davlatobod	160,3	163,6	3,3
Yangi Namangan	162,9	166,9	4,0
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	137,5	140,3	2,8
Kosonsoy	229,1	234,0	4,9
Namangan	193,6	198,1	4,5
Norin	176,4	179,8	3,4
Pop	236,5	240,6	4,1
To'raqo'rg'on	246,3	251,8	5,5
Uychi	233,4	238,6	5,2
Uchqo'rg'on	186,0	189,4	3,4
Chortoq	215,7	220,0	4,3
Chust	286,9	292,6	5,7
Yangiqo'rg'on	238,1	242,8	4,7

Viloyatda oʻrtacha oylik ish xaqi 2025- yilning yanvar-mart oylarida 4 276,9 ming soʻmni tashkil etib, viloyat hududlari boʻyicha koʻradigan boʻlsak, yani oʻrtacha oylik ish xaqining yuqori miqdori Namangan shahrida 5 183,7 ming soʻmni (viloyatdagi oʻrtacha oylik ish xaqiga nisbatan 121,2 %), Toʻraqoʻrgʻon tumanida 4 549,8 ming soʻmni (106,4 %) tashkil etgan.

**2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar boʻyicha oʻrtacha  
oylik nominal hisoblangan ish xaqi**

*(Viloyatdagi oʻrtacha oylik ish xaqiga nisbatan % da)*



**Namangan viloyati boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish xaqi**

*(qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan  
tashqari, ming soʻm)*

	2024- yil yanvar-mart	2025- yil yanvar-mart	Oʻsish surʼati, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>3 684,4</b>	<b>4 276,9</b>	<b>116,1</b>
shahar:			
Namangan sh.	4 480,8	5 183,7	115,7
tumanlar:			
Mingbuloq	3 017,9	3 534,3	117,1
Kosonsoy	2 837,8	3 292,1	116,0
Namangan	3 061,3	3 685,0	120,4
Norin	3 112,1	3 495,1	112,3
Pop	3 413,4	3 895,3	114,1
Toʻraqoʻrgʻon	3 910,1	4 549,8	116,4
Uychi	3 299,0	3 764,8	114,1
Uchqoʻrgʻon	3 105,6	3 498,2	112,6
Chortoq	3 081,3	4 022,3	130,5
Chust	2 918,8	3 402,7	116,6
Yangiqoʻrgʻon	3 280,5	3 757,1	114,5

Namangan viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan  
ish xaqi sohalar kesimida

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni (kishi)	O'rtacha oylik ish haqi (ming so'm)
<b>Viloyat jami</b>	<b>188 836</b>	<b>4 276,9</b>
shu jumladan:		
Sanoat	26 834	4 385,3
Qurilish	3 101	4 377,4
Savdo	2 604	4 184,1
Tashish va saqlash	1 242	5 035,8
Axborot va aloqa	1 075	6 952,4
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2 251	11 422,0
Ta'lim	84 079	4 002,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	40 578	3 406,4
Boshqa faoliyat turlari	27 072	5 872,1

2025- yil yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha o'rtacha  
oylik nominal hisoblangan ish xaqi sohalar kesimida

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan  
tashqari, ming so'm)

